

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash USLUBIYOTI

Mazkur Uslubiyot Yengil sanoatni rivojlantirish agentligining (*bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi*) faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar.

1. Agentlikning faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

Agentlikning korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p duch keladigan vazifa va funksiyalarini aniqlash hamda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini shakllantirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash quyidagilar ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur;

korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxati;

korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestri.

3. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

korrupsiyaviy xavf-xatar – davlat xizmatchisining o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi - Agentlik faoliyatida amalga oshiriladigan vazifa va funksiyalar (jarayonlar) bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning tavsifi va darajasi, funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizmlar, funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas'ul bo'lgan lavozim, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari, qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi, korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish choralari amalga oshirishga mas'ul ijrochilarni o'z ichiga olgan hujjat;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash - Agentlikning faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tahlil qilish, mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ushbu xavf-xatarlar darajasini baholash bo'yicha faoliyat;

qoldiq xavf-xatar - aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan choradan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

maxsus bo'linma – Agentlikning Korrupsiyaga qarshi komplaens nazorati;

ishchi guruh – Agentlik korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun tuziladigan xodimlar tarkibi.

4. Agentlik tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash “E-Anticor.uz” elektron platformasi orqali har yili 1-martga qadar amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan Agentlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish borasidagi faoliyatini takomillashtirish, ushbu yo‘nalishda kamchiliklarning oldini olish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilishi mumkin.

2-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkil etish.

6. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Agentlik markaziy apparatining barcha boshqarma va bo‘limlarini qamrab olishi lozim.

Bunda, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash maxsus bo‘linma yoki Ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

7. Ishchi guruh a‘zolari Agentlikning tarkibiy boshqarma va bo‘limlari mas‘ul xodimlaridan iborat tarkibda tashkil etiladi.

Agentlik direktori tomonidan buyruq bilan Ishchi guruh tarkibi tasdiqlanadi hamda uning faoliyati muvofiqlashtiriladi.

8. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashda Agentlik markaziy apparatining Ishchi guruh tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo‘yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

Agentlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish;

Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihasini ishlab chiqish;

Agentlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihalarini ko‘rib chiqish va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihasini takomillashtirish.

9. Agentlikning Korrupsiyaga qarshi komplaens nazorati bo‘yicha bosh mutaxassisi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlarini tashkil etish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihalarini ko‘rib chiqish;

–“E-Anticor.uz” elektron platformasiga korrupsiyaviy xavf-xatarlarni va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturini joylashtirish.

3-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibi.

10. Ishchi guruh tomonidan Agentlik faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) tavsifi ushbu Uslubiyotning **1-ilovasiga** muvofiq shaklda tuziladi.

11. Agentlik faoliyatidagi (vazifa va funksiyalardagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlar ichki va tashqi axborot manbalari asosida aniqlanadi.

12. Ichki axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Agentlik faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) huquqiy asosi;
ichki tekshiruv materiallari, shu jumladan xizmat tekshiruv materiallari;
odob-axloq komissiyasi majlislarining yig'ilish bayonnomalari;
korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarining monitoring natijalari;

Ishchi guruh tomonidan Agentlik faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari va boshqalar.

13. Tashqi axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Agentlik faoliyati to'g'risidagi huquqbuzarliklar to'g'risidagi murojaatlar, OAVdagi xabarlar va statistik ma'lumotlar;

Agentlik yoki boshqa davlat tashkilotlari tomonidan davlat tashkiloti faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar va boshqalar.

14. Ishchi guruh Agentlikning faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashda quyidagi holatlar tahlil qilinishi lozim:

Agentlikning xodimi tomonidan sodir etilgan korruptsiyaga oid huquqbuzarlik;

Agentlik tomonidan faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sun'iy to'siqlarning mavjudligi;

o'z vaqtida qaror qabul qilmaslik, asossiz tezkor tartibda qaror qabul qilish;

hujjatlar, elektron ma'lumotlar bazalariga bila turib yolg'on ma'lumotlarning kiritilishi;

xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi;

vakolatlarni amalga oshirishda mahalliychilik, homiylik, urug'-aymoqchilik kabi holatlarning mavjudligi.

15. Agentlik faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korruptsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi quyidagi o'lchovlarda baholanadi:

Past;

O'rta;

Yuqori.

16. Ishchi guruh tomonidan korruptsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish mazkur Uslubiyotning **2-ilovasidagi** mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, "E-Anticor.uz" elektron platformasidagi chek-listni to'ldirish orqali ma'lum bir vazifa va funksiyalaridagi korruptsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi avtomatik belgilandi.

4-bob. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarning darajasini bartaraf etish choralari.

17. Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

normativ-huquqiy hujjatlar hamda ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

inson omilini qisqartirish va davlat tashkiloti faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish;

Agentlik faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tartibga solish choralari

ko‘rish;

Agentlik xodimlari va jismoniy shaxslar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani maksimal darajada cheklash;

rasmiy veb-sayt va boshqa ommaviy axborot vositalarida Agentlik tomonidan amalga oshirilayotgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni joylashtirish va tarqatish;

davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayonini soddalashtirish, asossiz cheklovlarni, ortiqcha ma‘muriy tartib-taomillarni bekor qilish, byurokratik tartibga solish mexanizmlarini yo‘q qilish, taqdim etilgan hujjatlar soni va qaror qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

Agentlik tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirish, profilaktik suhbatlar o‘tkazish, ishonch telefonlari va aloqa kanallarida targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha ichki hujjatlarga har kuni, o‘zaro va to‘liq rioya qilishlarini nazorat qilish.

Agentlik korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha qonunchilik hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

18. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha mazkur Uslubiyotning 16-bandida belgilangan choralardan kelib chiqib, qoldiq xavf-xatar darajasini baholash mazkur Uslubiyotning **2-ilovasidagi** mezonlar asosida amalga oshiriladi va “E-Anticor.uz” elektron platformasida bu qayd etiladi.

19. Agentlik markaziy apparatining Ishchi guruhi tomonidan mazkur Uslubiyotning **3-ilovasiga** muvofiq shaklda markaziy apparatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi loyihasi ishlab chiqiladi “E-Anticor.uz” elektron platformasiga yuklanadi.

20. Agentlikning tizimosti korxonalari tomonidan ushbu Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaviy xavf- xatarlar xarita loyihalari va mazkur Uslubiyotning 4-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihalarini ishlab chiqiladi va shu tashkilotdagi Ishchi guruhiga ko‘rib chiqish uchun taqdim qilinadi.

21. Agentlikning Ishchi guruhi tomonidan Agentlik faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari asosida Agentlikning umumlashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqiladi va “E-anticor.uz” elektron platformasiga har yili 1-fevralga qadar kiritiladi.

22. Agentlik markaziy apparatining Ishchi guruhi tomonidan “E-anticor.uz” elektron platformasida joylashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga asosan avtomatik ravishda quyidagi xujjatlar shakllantiriladi:

Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi;

Agentlikning korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlari ro‘yxati.

5-bob. Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi.

23. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan “E-anticor.uz” elektron platformasida joylashtirilgan Agentlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xarita loyihalari asosida avtomatik ravishda korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar

elektron reyestri shakllantiriladi.

24. Korruptsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestri loyihasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish uchun **o'n besh kundan** kam bo'lmagan muddatga "E- anticor.uz" veb-saytiga joylashtiriladi.

25. Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi jamoatchilik muhokamasi natijalari bo'yicha umumlashtirilgan takliflarni muhokama yakunlangan kundan boshlab **o'n kun** ichida "E-anticor.uz" elektron platformasi orqali davlat tashkilotiga yuboradi.

26. Agentlik markaziy apparatining Ishchi guruhi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida Agentlikning korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi loyihalarini takomillashtiradi.

27. Agentlik direktori har yili **1-martga** qadar korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturini elektron imzo orqali "E-anticor.uz" elektron platformasi orqali tasdiqlaydi.

6-bob. Yakuniy qoidalar.

28. Ushbu Uslubiyot O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'zgargan taqdirda yoki Agentlikning korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish jarayonini takomillashtirish zarurati tug'ilganda qayta ko'rib chiqilishi va o'zgartirilishi lozim.

29. Mazkur Uslubiyot talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

*Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi
faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni
aniqlash va baholash Uslubiyotiga
1-Ilova*

Agentlik faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) TAVSIFI

[illegible]

Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish bo'yicha MEZONLAR

Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi	Mezonlar
Yuqori*	Agentlik faoliyati (vazifa va funksiyasi) avtomatlashtirilmagan
	Agentlik faoliyati (vazifa va funksiyasi) tartibga solinmagan
	Nazoratsiz tartibda ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	Agentlik faoliyati (vazifa va funksiya) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda bir shaxs ishtirok etishi
	Agentlik faoliyatini (vazifa va funksiyani) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilgan (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlangan)
O'rta	Agentlik faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman avtomatlashtirilgan
	Agentlik faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman tartibga solingan
	Nazorat tartibida ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	Agentlik faoliyatini (vazifa va funksiyani) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda ikkita shaxs ishtirok etishi
	Agentlik faoliyati (vazifa va funksiyasi) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumot mavjud (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlanmagan)
Past	Agentlik faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq avtomatlashtirilgan
	Agentlik faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq tartibga solingan
	jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud emas
	Agentlik faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda uch va undan ortiq shaxs ishtirok etishi
	korrupsiyaviy xatti-harakat va korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud emas

*Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi
faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni
aniqlash va baholash Uslubiyotiga
3-Ilova*

**“TASDIQLAYMAN”
Yengil sanoatni rivojlantirish
agentligi direktorii**

_____ **N.Xolmurodov**
 “ _____ ” 20__ yil

Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning XARITASI

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarning gavsifi	Korrupsiyaviy xavf-xatarning darajasi (past, o'rta, yuqori)	Funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas'ul bo'lgan lavozim	Funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizm	Korrupsiyaviy xavf- xatarlarni bartaraf etish choralari	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, o'rta, yuqori)	Mas'ul ijrochilar
	1. Tarkibiy bo'linmaning nomi*						
1.	1. Bo'lim funksiyasi nomi						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi						
	1. Jarayon nomi						
	2. Jarayon nomi						
	2. Tarkibiy bo'linmaning nomi*						
2.	1. Bo'lim funksiyasi nomi						
	1. Funksiyaga oid munosabat nomi						
	1. Jarayon nomi						
	2. Jarayon nomi						

*Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi
faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni
aniqlash va baholash Uslubiyotiga
4-Ilova*

**Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish
DASTURI**

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
1.				
2.				